

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI**  
**(AFG‘ONISTON)**


**FANINING O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 – San’at va gumanitar fanlar
<b>Ta’lim sohasi:</b>	230000 – Tillar
<b>Mutaxassislik:</b>	70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo’yicha)


**Toshkent–2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi boshlig'i

 Nuriddinov N.N.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

<b>Fan/modul kodi</b> ShMTVS1204	<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS — Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Afg'oniston)	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> talabalarga Afg'onistonda so'zlashuvda bo'lgan tillar, yuz berayotgan o'zgarishlar, tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarni tanishtirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda mamlakatdagi etnolingvistik vaziyat, mavjud tillarning tarixiy ildizlari, bir oila va guruhga mansub tillar, ular orasidagi munosabatlar, ya'ni tillarning o'zaro aloqalari va ta'siri, mazkur omillarning tillarning leksik fondining shakllanishidagi rolini diaxronik va sinxronik planda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>- mamlakatdagi tillarning adabiy til sifatida shakllanish jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;</li> <li>- mamlakatda yuzaga kelgan holat va unga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillarni baholash;</li> <li>- til ta'limi, uning mamlakatdagi tillarning zamon talabiga mos holda rivojlanishiga ta'siri, tillarning holatiga ta'sir etuvchi muhim masalalarni tahlil qilish.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>Ogayo davlat universiteti</b> Yaqin Sharq tillari va madaniyati kafedrasida (The Ohio State University, QS 151, THE 99) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://nesa.osu.edu/CoursesandPrograms/CatalogExcerpts/Persian">https://nesa.osu.edu/CoursesandPrograms/CatalogExcerpts/Persian</a></p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Til vaziyati predmeti tushunchasi**

Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi. Mamlakatdagi tillarning rasmiy maqomi (statusi). Mamlakatdagi rasmiy tillarning lahjalarini o'rganish.

#### **2-mavzu. Til vaziyati, ularning turlari, til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar**

Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi. Til va etnolingvistik vaziyat o'rtasidagi farqlar. Til vaziyatining tiplari (turlari). Til vaziyatining o'zgarish omillari.

#### **3-mavzu. Afg'onistondagi etnolingvistik vaziyat, tillarning rasmiy maqomi, ularning mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'rni**

Adabiy tilni xalq – so'zlashuv tili bilan yaqinlashuvi. Tilning lug'at tarkibini o'sishi va boshqa tillardan o'zlashtirish. Dariy tili leksikasini rivojlanishida so'z tuzilishining roli. Ko'rilayotgan davrda dariy tili terminologik (atamashunosligi) leksikasining shakllanish xususiyatlari.

#### **4-mavzu. Afg'onistonda til o'qitish holati va uning mamlakatdagi til vaziyatiga ta'siri**

Afg'onistonda maorif va oliy ta'lim taraqqiyoti. Afg'onistonga ilm-fan va ta'lim tili sifatida arab tilining kirib kelishi. Afg'oniston maorifi tizimida Kobul universitetining ahamiyati.

#### **5-mavzu. Dariy tilining adabiy til sifatida shakllanishi**

Dariy tilining adabiy til sifatida shakllanishi. Dariy tilining rivojlanish jarayoni Neghat Saidiy talqinida. Yangi fors tilining ilk davrida yaratilgan madaniy merosning hozirgi zamon dariy tilidan farqlari.

#### **6-mavzu. Dariy tili grammatikasida yuzaga kelgan ayrim o'zgarishlar**

Yangi fors tili shakllangan ilk davrdan buyon uning lug'at fondida va grammatik qurilishida yuz bergan o'zgarishlar. Eski fors tilining ayrim imlo xususiyatlari.

#### **7-mavzu. Pashtu yozuvining shakllanish jarayoni**

Arab alifbosiga asoslangan Afg'onistondagi imlo va yozuv qoidalari. Dariy va pashtu yozuvlarining tarixiy taraqqiyot jarayoni.

#### **8-mavzu. Afg'oniston matbuoti va uning dariy va pashtu tillarini rivojlantirishdagi roli**

Afg'onistondagi adabiy tilning rivojlanishida matbuotning roli. Afg'onistonda chop etilgan gazeta va jurnallar tarixi.

### **9-mavzu. Pashtu tilidagi axborot vositalari**

Afg'onistonda pashtu tilidagi matbuotning nashr qilinishi. Pashtu tilidagi birinchi oylik risola, gazeta va jurnallar.

### **10-mavzu. Afg'oniston Fanlar akademiyasi va uning tillarni rivojlantirishdagi roli**

Afg'onistonda akademik ilmiy muassalarning vujudga kelishi. Afg'onistonda "Pashtu tolana" tashkilotining tuzilishi va uning ahamiyati.

### **11-mavzu. Afg'onistondagi etnolingvistik vaziyat va til siyosati**

Afg'onistondagi tillar. Ularning mamlakat hayotidagi roli. Afg'onistondagi etnolingvistik vaziyat. Afg'onistondagi til siyosati. Rasmiy davlat tili, ikki tillilik, ko'p tillilik. Kommunikativ ahamiyat. Oz sonli so'zlashuvchiga ega bo'lgan tillar.

## **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Afg'oniston)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyot va manbalar bilan tanishish orqali bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Afg'oniston)" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Afg'onistondagi tillar va millatlar tarixi.
2. Dariy va pushtu tillarining o'rganilish tarixi.
3. Afg'onistondagi ikki tillilik siyosati.
4. Afg'oniston matbuoti.
5. Afg'oniston televideniyesi.
6. Afg'oniston Fanlar akademiyasining til borasidagi yo'riqlari.
7. Afg'oniston maktab, litsey va kollejlarda til o'qitilishi.
8. Afg'oniston oliy o'quv yurtlarida til o'qitilishi.
9. Sobiq Ittifoq va hozirgi afg'onshunos-tilshunoslarning dariy va pashtu tillaridagi darslik, qo'llanma, ilmiy risolalari borasida ma'ruzalar tayyorlash.
10. Afg'oniston radio, televediniya va axborot sohalorida til borasidagi eshittirish va xabarlarini tahlil qilish.

## **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilinadi.

	<p><b>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Afg‘oniston)” fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Til vaziyati tiplari.</li> <li>2. Afg‘onistondagi etnolingvistik vaziyat, tillarning rasmiy maqomi, ularning mamlakat ijtimoiy hayotidagi o‘rni. Tilning rivojlanishi va til tizimiga boshqa tillarning ta’siri masalasi.</li> <li>3. Afg‘onistonda til o‘qitish holati va uning mamlakatdagi til vaziyatiga ta’siri.</li> <li>4. Dariy tilining adabiy til sifatida shakllanishi.</li> <li>5. Dariy tili grammatikasida yuzaga kelgan ayrim o‘zgarishlar.</li> <li>6. Afg‘oniston Fanlar akademiyasi va uning tillarni rivojlantirishdagi roli.</li> <li>7. Afg‘oniston matbuoti va uning dariy va pashtu tillarini rivojlantirishdagi roli.</li> <li>8. Afg‘oniston televideniyasida ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar leksikasi.</li> </ol> <p>Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;</li> <li>- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;</li> <li>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish;</li> <li>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;</li> <li>- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash.</li> </ul>
3.	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><i>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Afg‘oniston)” fanini o‘zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o‘rganilayotgan mamlakatdagi sotsiolingvistik vaziyat;</li> <li>– o‘rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi va ularning tili;</li> <li>– til vaziyati tushunchasi;</li> <li>– til vaziyati turlari va ularning farqlari;</li> <li>– tili o‘qitilayotgan mamlakatdagi etnolingvistik vaziyat haqida <b>tasavvurga ega bo‘lishi;</b></li> <li>– bilingvizm va polilingvizm;</li> <li>– davlat tili tushunchasi, ya’ni o‘rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosati;</li> <li>– jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillar;</li> <li>– o‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyatini me’yorga solishda Til akademiyalarining o‘rni;</li> <li>– savodsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat tomonidan o‘tkazilayotgan til bilan bog‘liq ta’lim tizimidagi islohotlar;</li> <li>– OAV va televideniening mamlakatdagi til vaziyatiga ta’siri;</li> <li>– xalqaro mehnat taqsimotida Sharq mamlakatlarining roli va o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyatiga ularning ta’siri haqida <b>bilishi va ulardan foydalana olishi;</b></li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– til vaziyatining rivojlanish tendensiyalari;</li> <li>– til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablari;</li> <li>– o‘rganilayotgan mamlakatning lingvogeografik va lingvoareal tavsifi;</li> <li>– o‘rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-so‘zlashuv tili va dialektlardan farqi;</li> <li>– o‘qitilayotgan til lug‘at boyligining o‘shida turli ilmiy tashkilotlarning o‘rni haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;</li> <li>– o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tizimlashtirish;</li> <li>– o‘rganilayotgan tilni isloh qilish yo‘lida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish;</li> <li>– globallashuv sharoitida o‘rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo‘yicha kechayotgan o‘zgarishlarni tushuna olish malakalariga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma‘ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Inomxo‘jayev R. Afg‘onistonda til vaziyati va til sohasidagi davlat siyosati (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2020.</li> <li>2. Language policy and language conflict in Afghanistan and its neighbors: the changing politics of language choice / edited by Harold F. Schiffman. – Leiden, Boston, 2012.</li> <li>3. Inomxo‘jayev R. Afg‘oniston ma‘rifatparvarlik adabiyoti. – T., 1999.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.</li> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent:</li> </ol>

- O'zbekiston, 2023.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
  7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
  8. Актуальные проблемы строя иранских языков. – М.: Изд-во Московского университета, 1988.
  9. ننگیت سعیدی محمد نسیم. دستور زبان معاصر دری. کابل ۱۳۴۹.
  10. Фархадӣ Р. Разговорный фарси в Афганистане. – М., 1974.
  11. Дворянков Н.А. О двух аспектах изучения языковой ситуации. – М., 1970.
  12. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М., 1985.
  13. Bashir, Elena. Evidentiality in South Asian languages. 2006.

#### Scopusdan maqolalar

14. Persian-tajik word-forming affixes of the agent noun in the uzbek language Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 9), 563-568. <https://www.eurchembull.com/issue-content/persian-tajik-word-forming-affixes-of-the-agent-noun-in-the-uzbek-language-7890> (хаммуаллифликда: Alimova, Kh., Azimdjanoval, D., Akhmedoval, D., & Nuriddinoval, N.)
15. Polysemy of Simple Verbs in The Persian Language. <https://spast.org/techrep/article/view/5025>  
The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies- 2023 | PAMIR 2023, pp.96-107 (хаммуаллифликда: Akhmedoval D., Alimoval Kh., Azimdjanoval D., Nuriddinoval N., Azimbayeval N., Arifdjanov Z.)
16. Gradual Development of The Vowel System in Dari and Persian Languages // Journal of Lifestyle and SDG'S Review. Florida, USA, 2024. Vol. 4, e01584. pp. 01–17. <https://sdgsreview.org/LifestyleJournal/indexing> (хаммуаллифликда: Uktamoval Kh., Alimoval Kh., Mirzakhmedoval Kh., Nuriddinoval N., Azimdjanoval D., Nishanbaeval A.

#### Axborot manbalari

17. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
18. <http://mt.tsuos.uz/>
19. [www.afghanpaper.com](http://www.afghanpaper.com)
20. [www.irandoc.ac.ir](http://www.irandoc.ac.ir)
21. [www.afghana.com](http://www.afghana.com)

7.

Fanning o'quv dasturi Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil "20" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sul:</b>          Alimova X. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>          Nizomova F. – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;          Azimdjanova D. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>

Sept